

Oriental Journal of Education



ABOUT THE STUDY OF MARRIAGE RELATIONS

Nargiza Tarakhudjaeva*Master's student**University of Exact and Social Sciences**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: family, marriage, spousal relationships, everyday life, wedding preparation, family conflicts, mother-in-law and daughter-in-law relations, psychological incompatibility, ethnopsychological approach.

Received: 09.04.25**Accepted:** 11.04.25**Published:** 13.04.25

Abstract: This article explores the formation of family and marital relationships, their scholarly examination, and the distinctive historical dynamics of change within this domain. It provides an in-depth analysis of academic articles and research findings on marriage and family relations among the peoples of Central Asia, spanning from the 19th century to the present day. Special emphasis is placed on the evolution of academic approaches and interpretations related to this topic.

NIKOH MUNOSABATLARINING O'RGANILISHIGA DOIR

Nargiza Taraxo'djayeva*Magistratura talabasi**Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila, nikoh, er-xotin munosabatlari, maishiy turmush, to'yga tayyorgarlik, oilaviy nizolar, qaynona-kelin munosabatlari, ruhiy nomutanosiblik, etnopsixologik yondashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila, nikoh munosabatlarining shakllanishi, uning o'rganilishi, mazkur masaladagi o'zgarishlarning davriy o'ziga xosliklari haqida so'z boradi. Unda XIX asrdan to hozirgi kunimizgacha oila-nikoh munosabatlari, xususan, O'rta Osiyo xalqlarida mazkur masalaning yoritilishiga doir ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari natijalari atroflicha tahlil qilingan.

ОБ ИЗУЧЕНИИ БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Наргиза Тараходжаева*студент магистратуры**Университет точных и социальных наук**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семья, брак, супружеские отношения, повседневная жизнь, подготовка к свадьбе, семейные конфликты, отношения свекрови и невестки, психологическая несовместимость, этнопсихологический подход.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования семейных и брачных отношений, особенности их изучения, а также характерные черты изменений в данной сфере на различных исторических этапах. Проведен подробный анализ научных публикаций и результатов исследований, посвящённых брачно-семейным отношениям народов Средней Азии, начиная с XIX века до наших дней. Особое внимание уделено эволюции взглядов и подходов к данной теме в научной литературе.

Oila va nikoh mavzusi azaldan insoniyat uchun dolzarb mavzulardan bo'lib kelgan. Oila-nikoh munosabatlari masalasi doimo ko'plab soha vakillarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Oila-nikoh mavzusining o'rganilishi masalasi keng qamrovli hisoblanib, bu tegishli muaommo yuzasidan batafsil xulosalar berishni qiyinlashtiradi.

O'zbeklarlar oila-nikoh munosabatlarini o'rganilishiga doir asarlar keng qamrovlidir. Xususan, o'zbeklarning oila va nikoh munosabatlari mavzusi bilan qiziqishlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida, ancha kengaydi. Mualliflarning aksariyati, shu davrda mintaqaga O'rta Osiyoga ko'chib kelgan imperiya olimlari edi. Ular o'zbek xalqining oilaviy-maishiy hayoti, turmush tarzini o'rganib, nikohgacha bo'lgan munosabatlar va undan keyingi amalga oshiriladigan jarayonlarni hamda O'rta Osiyo xalqlariga xos oilaviy marosimlari kuzatuvga asoslangan ma'lumotlarni to'pladilar.

Jumladan, A.D. Grebenkin, V.P. Nalivkin va M.V. Nalivkina, N.S. Likoshinlarning asarlarida [1] O'rta Osiyo xalqlarining etnologiyasi, xususan, oila-nikoh munosabatlari masalasi ham yoritilgan. Shuningdek, bu davrda yashagan mahalliy ziyolilarning qator asarlarida ham yerli aholining oila-nikoh munosabatlari haqidagi mulohazalar paydo bo'ldi. Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" [2] asarida oila-nikoh munosabatlari alohida mavzu sifatida yoritildi. Muallif unda oila qurish zarurati, uylanish va uylanmaslik, umr yo'ldoshini tanlashni, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi haqidagi mulohazalarini bayon qilgan.

Xususan, er-xotin Nalivkinlarning "Farg'onaning tub o'troq aholisi ayollarining turmushi haqida ocherklar" ("Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы") asarida o'zbeklarning oila-nikoh munosabatlariga doir mulohazalar boshqa asarlarga qaraganda batafsilroq ma'lumot berilgan.

Sovet davriga kelib oila-nikoh masalalari bo'yicha qilingan etnografik tadqiqotlarda masala chuqur o'rganila boshlandi. Ularda o'zbeklarning oilaviy-maishiy turmushini o'rgangan olimlarning ishlarida asosiy e'tibor oilaviy marosimlar va maishiy hayotga qaratilgan. Bunda ko'proq qishloq

oilasi o'rganilgan bo'lib, oila-nikoh munosabatlari esa etnografik tadqiqotlar doirasidan chetda qolgan.

Bu davrdagi tadqiqotlarning aksariyati bevosita shaxsiy kuzatuvlarga asoslangan, dalillarning mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Ularda oila-nikoh munosabatlarida muhim hisoblangan nikohgacha, nikoh davri hamda undan keyingi jarayonlar ketma-ketligini o'rganishda o'ziga xos o'ringa ega. Bu borada qilingan M.A. Bikjanovning nomzodlik dissertatsiyasi, N.A. Kislyakovning "O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari oila va nikoh tarixiga oid ocherklar" ("Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана") asari O'rta Osiyo xalqining XIX asr va XX asrning boshlaridagi oilaviy-maishiy turmushi haqida nisbatan batafsilroq ma'lumot beradi. Biroq bu ishlardagi aksariyat mulohazalarni umumiy rakursda, tor sohalar doirasidagi tadqiqotlardan holi deyish mumkin. Faqatgina mavzuga oid ayrim masalalarning to'liqroq yechim topganligini ko'rish mumkin. Masalan, N.A. Kislyakovning qayd qilingan asarida nikohning qanday an'anaviy shakllari mavjud ekanligi haqida yaxshi, batafsil to'xtalangan.

Mustaqillik yillarida nikoh va oilaga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. I.M. Jabborovning o'zbeklar etnografiyasiga doir kitobida [3] o'zbek xalqi maishiy turmush tarzi, oilaning shakllari, oilaviy marosimlar, urf-odatlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida qator ma'lumotlar keltirilgan.

O.Bo'riev, I.Shoyardonov, Q.Nasriddinovlarning hammualliflikda o'zbek oilasi tarixiga bag'ishlanib yozilgan asarda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida janubiy O'zbekistonda yashovchi aholining oilaviy-maishiy turmushi, oilaviy munosabatlari va shu kabi masalalarni qamrab olgan, qimmatli dalillarga tayanilgan ma'lumotlar keltirilgan. Unda o'zbeklarning oila-nikoh munosabatlaridagi o'ziga xosliklar janubiy voha aholisi misolida yoritilgan.

Bundan tashqari yana qator tadqiqotlar [5] amalga oshirildi. Ularda oila-nikoh munosabatlariga doir xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, oila hayotida, oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlashda, oila qurishda, uning barqarorligini ta'minlashda, ajralishlarning oldini olishda mahallaning o'rni va uning ahamiyati ko'plab adabiyotlar, statistik hamda dala etnografik ma'lumotlari asosida ochib berilgan.

Z.Arifxonova o'z maqolalarida to'yga tayyorgarlik va uni o'tkazishda, umr yo'ldoshini tanlashda, nikoh munosabatlarini mustahkamlashda qo'shnichilik jamoalarining, qarindoshlik aloqalarining, ulfatlarning o'rni ham batafsil yoritiladi. O'z navbatida, Z.Arifxonova va G.Zununova o'zbeklar marosimlar tizimining an'anaviy masalalarini o'rganar ekan, diniy marosim va urf-odatlaridagi ro'y berayotgan transformatsiyalar va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni qayd qilishgan.

Yuqorida oila-nikoh munosabatlari ko'plab soha vakillarining tadqiqot obyektiga aylanganligi qayd qilingan edi. Shu bois oila barqarorligi, uning mustahkamligi, er-xotin munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda psixologiya fanining yutuqlari haqida to'xtalish maqsadga muvofiq.

Bu borada V.Barskiy o'zining tadqiqotida [6] erkak va ayolning nikohgacha bo'lgan munosabatlari, qilinadigan xatolar va uni oldini olish borasida yaxshi fikrlar berilgan.

Albatta, yuqorida keltirilgan mualliflarning ishida berilgan tavsiyalar umumfan nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, ularda etnik xususiyatlar jiddiy e'tiborga olinmagan.

Bu borada N.Soginovning ilmiy tadqiqotlari [7] diqqatga sazovordir. Chunki, u birinchilardan bo'lib o'zbek oilalarida er-xotinlar o'rtasidagi nikohdan qoniqqanlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, shu bilan birgalikda, o'zbek oilalarida er-xotin munosabatlarining hududlararo va etno-psixologik xususiyatlarini o'rgangan.

Shuningdek, M.Aliev [8] ham o'zbeklarning oila-nikoh munosabatlarini o'rganib, qaynona-kelin munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. Bunda muallif mazkur munosabatlarning etnopsixologik aspektlarini tadqiq qilgan.

Shuni qayd qilish lozimki, oila barqarorligi, uning mustahkamligi, er-xotin munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda G'.B. Shoumarovning tadqiqotlari ahamiyatlidir. Bunda tashqari, ushbu tadqiqotchi o'z ishlarida, oilaviy udumlar va umummilliy an'analarning yoshlarning tarbiyasiga hamda oilaviy munosabatlarga psixologik ta'siri masalalari tahlili qilgan [9].

O'zbek oilalarida er-xotin munosabatlariga bag'ishlangan ishlar sirasiga X.Karimovning ishlarini ham kiritish mumkin. Mazkur olim o'z tadqiqotlarida [10] o'zbek oilalaridagi er va xotin orasida ro'y beradigan nizolarini o'rganib, ularing ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib bergan. Er va xotin o'rtasida kelib chiqayotgan nizolarning tasnifini amalga oshirgan.

N.Salaeva esa ushbu muammoning etnolokal xususiyatlarini ochib berishga asosiy e'tiborini qaratadi [11]. Jumladan, u xorazmlik o'zbek oilalarining etnopsixologik va hududiy o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilib, ularning turmushida amal qilinayotgan milliy qadriyatlar, ushbu milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini, yosh kelin-kuyovlarning nikoh oldi va undan keyingi turmushi etnopsixologik omillarga ko'ra qanday rivojlanishini ochib bergan.

M.Fayziyeva esa oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zbek milliy-madaniy muhiti sharoitida o'rganib, o'zbek oilalarida er-xotinning baxtli hayot va farovon turmushini ta'minlovchi omillar va fazilatlar tizimini aniqlagan [12].

N.X.Lutfullaeva oila-nikoh munosabatlarini o'zgacha yondashuvda tadqiq qildi. U o'z dissertatsiyasida birinchi marotaba oila-nikoh munosabatlarini talabalar misolida o'rgandi. Ya'ni, talaba yoshlardan iborat oilalardagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikohdan qonikmaslikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganishga alohida urg'u berdi [13].

U.Saribayeva o'zining ilmiy tadqiqotida [14] er-xotinning jinsiy-psixologik nomutanosiblik muammolariga qiziqish bilan qaragan. U bu holatning oila barqarorligiga ta'sirini o'zbek oilalari misolida tahlil qildi. Asosan, mazkur muammoni o'rganishni ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik yondashuv orqali amalga oshirdi. Aynan, jinsiy-psixologik nomutanosiblik masalasi maxsus tadqiqot

predmeti sifatida ilk bor o'rganildi. Unda er-xotinning jinsiy-psixologik nomutanosibligini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va psixologik sabablari aniqlangan.

Oila-nikoh munosabatlarini o'rgangan navbatdagi soha – bu tibbiyot yo'nalishidagi ishlardir. Ularda asosan, biologik jarayonlar, ya'ni er-xotin o'rtasidagi jinsiy munosabatlar o'rganilib, bu borada B.Rahmatov, T.Samatov, O'ktam Muhammad Murod kabi tadqiqotchilarning ishlarini [15] alohida qayd qilish lozim. Ular o'zbek mentalitetidan kelib chiqib, nikohgacha va nikohdan keyin bo'ladigan erkak va ayolning jinsiy tarbiyasi, oilaning sog'ligi borasida muhim ilmiy xulosalar beradilar. O'z navbatida, jinsiy hayot oila barqarorligini saqlashda muhim o'rin tutishini ilmiy asoslaydilar.

Shuningdek, oila muammolari sotsiologlar tomonidan ham ancha katta qiziqish bilan o'rganilgan. Xususan, oila va nikoh munosabatlari borasida "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining faoliyati monografiya uchun qimmatli sotsiologik tadqiqotlar natijalarini berdi.

Shu bilan birga, R.Umurzakovanning ilmiy tadqiqotlari [16] oilaning ijtimoiy institut sifatidagi vazifalari, oila mustahkamligi o'rtasidagi aloqadorlik aniqlanganligi, nikoh oldi munosabatlari, urf-odat va an'analarning oila mustahkamligiga ta'siri hamda o'zbek oilalarida turmush qadriyatlarining oila mustahkamligiga pozitiv tarbiyaviy ta'siri o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot mavzuining o'rganilish darajasi haqida so'z borar ekan, shuni qayd qilish zarurki, mavzuga doir materiallarning asosiy qismi aynan o'zbeklar emas, boshqa millatlarni o'rganishga tegishlidir. O'zbeklarga oid adabiyotlarda garchi balki, muhim ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, oila-nikoh munosabatlarining faqat ma'lum bir jihatlari alohida fan sohasida o'rganilgan yoki umumiy tavsiflar yo sotsiologik tadqiqot natijalari hisoboti tarzida berilgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarning aksariyatida o'zbeklarning nikohgacha bo'lgan munosabatlarining muhim muammolari, nikohlanayotganlarning o'zaro munosabatidagi o'zgarishlar tadqiqotchi-etnograf va etnologlarning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan. Bu va oila munosabatlarining boshqa muammolari O'zbekiston olimlarining alohida tadqiqot predmetiga aylana olmadi. Chunki oila-nikoh bilan bog'liq deyarli barcha etnografik ilmiy ishlarda, asarlarda asosiy e'tibor oila-nikohning barcha qirralariga qaratilmagan.

Bu borada psixologlar nisbatan katta yutuqlarga erishganlar. Ularning izlanishlari ancha samaralidir. Ammo ularning yondashuvida ham muammoga biryozlarga qarashlar kuzatiladi. Ya'ni, oila-nikoh munosabatlarini faqatgina psixologik (asosan, ijtimoiy-psixologik) aspektda o'rgandilar. Bu xildagi yondashuvni boshqa fan sohalarida ham kuzatish mumkin. Sababi, odatda, har bir fan sohasi o'zining tadqiq qilish uslubidan kelib chiqqan holda oila va nikohni o'zlariga tegishli rakusrdan o'rgandi. Bugungi kunda oila va nikoh masalalarini alohida fan sohasida o'rganishning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda qiyinchiliklar tug'iladi. Samarali

ish olib borish uchun oila va nikohni boshqa fanlarlarga yondashuv asosida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886.
2. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари / Тарж. ва изоҳ. муаллифи Ш. Воҳидов. 2-нашр. – Тошкент, 2000.
3. Жабборов И.М. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент, 1994; Жабборов И.М. Ўзбеклар (Анъанавий ҳўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). – Тошкент, 2008.
4. Бўриев О., Шоймардонов И., Насриддинов Қ. Ўзбек оиласи тарихидан. – Тошкент, 1995.
5. Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли Ташкента. – Ташкент, 2000.
6. Барский В. Культура добрых отношений / Культура семейных отношений (сборник статей). – Москва, 1980.
7. Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Киев, 1990.
8. Алиев М.М. Культура общения и семейные отношения. – Ташкент, 1991.
9. Шоумаров Ғ.Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила. – Тошкент, 1994.
10. Каримов Х.К. Социально-психологические особенности супружеских конфликтов в узбекской семье: Автореф. дисс... канд. психол. наук. – Ташкент, 1994.
11. Салаева Н. Хоразм оилаларининг этнопсихологик хусусиятлари. Психол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002.
12. Файзиева М.Х. Оила барқарорлигига шахслараро муносабатлар таъсирининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (эр-хотин мисолида): Психол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2005.
13. Лутфуллаева Н.Х. Турмуш қурган талабаларнинг оилавий муносабатларга тайёрлигининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2006.
14. Сарибаева У.С. Оила барқарорлигига жинсий-психологик муносабатларнинг таъсири. Психол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2007.
15. Раҳматов Б. Қулоққа айтиладиган гаплар. – Тошкент, 1991.
16. Умурзакова Р.А. Ўзбекистонда оила муносабатларининг социал омиллари. Социол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2006.